

QISHLOQ JOYLARDA SAVDO TIZIMLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA TARKIBIY TUZILISHI

Oteniyazov Erkin Turg'unbaevich

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi, Qoraqalpoq tabiiy fanlar
ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktori*

otenyazov1992@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda O'zbekiston qishloq joylarida savdo tizimining iqtisodiy mohiyati, uning tarkibiy tuzilmasi va barqaror rivojlanish omillari tahlil qilingan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish jarayonlarining savdo tizimidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, qishloq joylarda savdo tizimini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar, jumladan logistika, moliyaviy resurslar, marketing va xalqaro standartlarga moslashish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, kooperatsiya va klaster tizimlarini rivojlantirish hamda xalqaro tajribalarni qo'llash orqali savdo tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qishloq joylar, savdo tizimi, iqtisodiy rivojlanish, qishloq xo'jaligi, eksport, logistika, klaster, kooperatsiya, innovatsiya, raqobatbardoshlik.

KIRISH

Shuni aytish joizki, mamlakatimizdagi mavjud qishloq joylarda savdo tizimlarining iqtisodiy mohiyatini, xususan tarkibiy tuzulmasini o'rganish, barqaror rivojlanish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan mazkur sohani bozor munosabatlariga o'tish jarayonida qishloq joylarda savdo tizimini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida katta e'tibor qaratilmoqda. Zero, qishloq joylardagi mahsulotlarini tashqi bozorlarda sotish hisobiga mamlakat valyuta tushumining sezilarli qismi shakllanayotganligi ham sohani tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirishning ustuvorligidan dalolat beradi.

Bu borada olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar asosiy ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilish imkonini yaratmoqda. Bu degani shuki, birinchidan qishloq joylarda savdo tizimining iqtisodiy mohiyati barqaror rivojlantirish, nafaqat qishloq aholisining turmush darajasiga, balki mamlakat barcha aholisining ijtimoiy farovonligini ham oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan, mamlakatimizning qishloq joylardagi aholisi 49 fizini tashkil qilishi, mamlakat yalpi ichki mahsulotining 24,23 foizi tashkil etgani, qishloq joylarida aholining daromadlari oldingi yillarga qaraganda ijobiy o'zgarayotganini ko'rsatadi. Mamlakatning qator tarmoqlarini rivojlanishiga o'zining bevosita ta'sirini bildiradi. Shuningdek, mamlakatimizning qishloq joylarda savdo tizimlarining asosiy o'rinlarini qishloq xo'jalik eksporti egallaydi.

Yaqin yillardan buyon mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida qishloq

joylarda savdo atamasi tez-tez ishlatila boshlandi. Savdo tizimi bugungi kunda mamlakatimizning barcha sohalariga kirib bo'lgan. Shu o'rinda bir savol tug'iladi "Savdo" atamasi o'zi nima? Savdo tizimi to'g'risidagi nazariyalar bu savolning javobini ochib beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'lumki, savdo tizimiga oid nazariyalarni yaratilganligi va ularning amaliy ahamiyati mamlakatlar, tarmoqlar va korxonalar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish handa yuqori samaradorlikka erishishni nazarda tutgan mamlakatimiz va xorijlik olimlar tomonidan ilmiy – nazariy jihatdan keng o'rganilib savdo tizimiga oid ilmiy taqdiqot ishlari olib bormoqdalar. Umuman olganda, xorijlik olimlardan Value Chains, Thomas Reardon, Bart Minten, Joachim von Braun, Amartya Sen, Elinor Ostrom, Hans Binswanger-Mkhize, Esther Duflo, Abhijit Banerjee, Hall, Nahdy, Dixon¹lar tomonidan qishloq joylarda savdo tizimi mohiyati, uni rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlar olib borilgan.

Qishloq joylarda savdo tizimi nazariyasi juda qadimiy tarixga ega bo'lib shunga qaramay hozirgacha taqdiqot o'tkazilib kelmoqda. XX asrda dunyoda ko'pgina iqtisodchilar jumladan AQShlik Karl Polanyi, Britaniyalik Bronislovw Maliniwski, va Fransiyalik Marsel Mausslar tomonidan ilgari surilgan. Shundan so'ng qishloq taraqqiyoti tafakkurining evolyutsiyasi 1950-yillarda yuqoridan pastga qarab "ko'k bosma" davlat yetakchi yondashuvlari va 1980-yillarda pastdan yuqoriga bozorga yo'naltirilgan ishtirok yondashuvlari kabi turli strategik mavzularni o'z ichiga olganligini Ashley va Maxwelllar taqidlagan. Bu o'n yil ichida birinchi marta paydo bo'lgan g'oyalar ancha keyin takomillashtirila boshlanganligi sababli ko'rsatgichdir. Masalan, 1950-yillarda yuqoridan pastga yondashuvlar ostida qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish orqali "jamoarivojlanishi" dan 1970-yillarda pastdan yuqoriga yondashuvlar ostida "Fermerlik tizimi taqdiqotlari" sifatida takomillashtirilishigacha to'g'ri kelganini bayon etgan. U esa kiyichlik qishloq joylarda korxonar va tashkilotlar samaradorligi ularning iqtisodiy zonalar yaqinida geografik joylashuviga bog'liqligini isbotlagan. B.Lundval va B.Yonsonlar esa klaster nazariyasi bilan bog'liq "Rivojlanish bloklari" konsepsiyasini taclid etganlar hamda sohar yoki hududiy ishlab chiqarish birlashmalari, butun mamlakat aholisini uzluksiz o'qitish jarayoni milliy iqtisodiy yuksalish va raqobatbardoshlik manbai ekanligini ta'kidlaganlar.

O'zbekistonda qishloq joylarda savdo tizimi asosida ishlab chiqarishni taškil etishning ilmiy asoslari S.Jo'rayev² (2020) va M. Raximov (2021) o'z taqdiqotlarida qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishda erkin bozor munosabatlari, kredit-moliya tizimi va yer resurslaridan oqilona foydalanishning rolini alohida ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, qishloq joylarda iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqaruvchilarning bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish va kooperatsiyani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Rural Industry Development: Implementing a Whole-of-Chain Approach By Mubashir Mehdi

² Jo'rayev, S. (2020). "Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishda erkin bozor munosabatlari va yer resurslaridan oqilona foydalanish." Qishloq xo'jaligi rivojlanishining iqtisodiy asoslari. Toshkent: O'zbekiston iqtisodiyoti nashriyoti.

Qishloq joylarda fermer xo'jaliklarini tashkil qilish, yerdan foydalanish munosabatlarini isloh qilish, agrotexnik xizmatlarni kengaytirish, suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish, kredit va subsidiyalar tizimini yo'lga qo'yish agrar faoliyatining barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Ma'lumki, qishloq xo'jaligida kooperatsiya va klaster tizimlari joriy etilishi resurslar, bozorlarga chiqish imkoniyatlarini yaxshilab, kichik bizneslar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Qishloq joylarda mahsulotlarini qayta ishlash, logistika infratuzilmasini rivojlantirish, ichki va tashqi bozor talablariga mos mahsulot yetishtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar iqtisodiy samaradorlikni oshirdi.

Savdo tizimiga juda ko'plab ta'riflar berilgan, ularni keltirib o'tish maqsadga muvofiq (1-jadval):

1-jadval


Xorijlik olimlar tomonidan “Savdo tizimi” atamasiga berilgan ta'riflar³

Mualliflar	Savdo tushunchasiga berilgan ta'riflar
Adam Smit	Savdo erkin bo'lganda, har bir shaxs o'z manfaatini ko'zlab harakat qilsa ham, noma'lum tarzda butun jamiyat manfaati uchun ishlaydigan “ko'z ko'rmaydigan qo'l” orqali bozor tartibga solinadi va resurslar samarali taqsimlanadi.
Devid Rikardo	Har bir mamlakat o'zida eng kam qiyinchilik bilan (nisbiy afzallik bilan) ishlab chiqara oladigan mahsulotga ixtisoslashib, savdo qilsa, barcha ishtirokchilar foyda ko'radi va umumiy farovonlik oshadi.
Karl Marks	Savdo tizimi – bu kapitalist iqtisodiyotning asosi bo'lib, u ortiqcha qiymatni yashirish va sinfiy ekspluatatsiyani amalga oshirish vositasi hisoblanadi. To'g'ridan-to'g'ri foydaga intilish uning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir.
Jon Meynard Keyns	Ichki talab yetarli bo'lmaganda, xalqaro savdo (eksport) talabni rag'batlantirishning muhim omilidir. Biroq, himoyachilik siyosati iqtisodiy inqiroz davrida zarur bo'lishi mumkin.
Milton Fridman	Erkin savdo iqtisodiy o'sish va siyosiy erkinlikning asosidir. Davlat aralashuvi minimal bo'lishi, savdo to'siqlari esa butunlay yo'q qilinishi kerak.
Pol Samuelson	Savdo iqtisodiy o'sish va farovonlikni oshiradi, ammo bu g'alaba har doim ham barcha ishtirokchilar o'rtasida teng taqsimlanmaydi. Ba'zi ishchilar texnologik o'zgarishlar va resurslarning oqimi tufayli zarar ko'rishi mumkin.
Fridrix Xayek	Savdo – bu “keng tartib”ning eng muhim elementi bo'lib, u har qanday markaziy rejalashtiruvchi tomonidan boshqarib bo'lmaydigan tarzda tarqalgan bilim va ma'lumotlardan samarali foydalanish imkonini beradi.
Maykl Porter	Savdo mamlakatlarni o'z milliy iqtisodiy klasterlarini rivojlantirishga, innovatsiya va sifat orqali raqobatbardoshlikni oshirishga undaydi.
Jozef Stiglitz	Globalashuv va savdo adolatli qoidalar va barqaror rivojlanishni hisobga olmagan holda amalga oshirilsa, kuchsuz mamlakatlarni chetga surib, tengsizlikni kuchaytirishi mumkin.
Elyanor Ostrom	An'anaviy savdo tizimlari mahalliy jamoalar tomonidan boshqariladigan barqaror resurslardan foydalanish tamoyillariga asoslangan bo'lishi mumkin, bu ularning mustahkamligini ta'minlaydi.
Amartya Sen	Savdo nafaqat farovonlikni, balki odamlarning hayot tarzini tanlash erkinligini kengaytiradi va ularning iqtisodiy mustaqilligini (tasavvur qilish va amalga oshirish qobiliyatini) oshiradi.
Robert Lukas	Xalqaro savdo orqali ilg'or texnologiyalar va bilimlarning tarqalishi (bilimning

³ Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

	oqimi) mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy o'sish farqlarini tushuntirishda muhim rol o'playdi.
Dani Rodrik	“Sovuq” haqiqat shundaki, to'liq erkin savdo, mustahkam milliy davlat va keng demokratiya o'rtasida qat'iy muvozanat mavjud. Bittasini cheksiz kuchaytirish, boshqasini zaiflashtiradi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning jadal rivojlanishi uchun shart sharoitlar yaratish, mamalakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida 2022-yil 28-yanvarda respublika Prezidentining PF-60-sonli farmoni qabul qilinib, unda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqildi. Ushbu strategiyada Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish suratlari ta'minlash uchun quyudagi ustuvor yo'nalishlar belgilangan (1-rasm).



1-rasm. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish suratlari ta'minlash yo'nalishlari⁴

Ma'lumki, ushbu hujjatni o'rganish natijasida Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi Qishloq joylarda savdo tizimini qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish

⁴ 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning TARAQQIYOT STRATEGIYASI to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli Farmoniga 1-ilova. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

va sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish, eksport uchun eng yaxshi mahsulotlar yetishtirish hamda bozorni rivojlantirish, yangi va foydalanilmayotgan yuzlab gektar yer maydonlarini o'zlashtirish handa qishloq aholisiga ajratib berishni qo'llab quvvatlashga qaratilganligini ko'rish mumkin.

METODOLOGIYA

O'zbekistonda ijtimoiy sohada ham yaxshi natijalar kuzatilmoqda. Bu esa qishloq joylarda yangi ish o'rinlarining yaratilishi qishloq aholining bandligini oshirishga xizmat qilmoqda. Qolaversa Farg'onada, qishloq aholisi ishtirokidagi kichik fermer xo'jaliklari faoliyati kuchaymoqda. Fermerlar daromadining ortishi qishloq joylarda infratuzilmasining rivojlanishiga ko'mak bo'lmoqda. Qashqadaryo va Sirdaryo viloyatlarida fermerlarning tashabbusi bilan servis markazlari, omborxonalar, sovutkich tizimlari va bozorlar tashkil etilmoqda.

Ammo viloyatlar orasidagi iqtisodiy tafovutlar mavjud. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Jizzax viloyatlarida suv resurslari tanqisligi, infratuzilma yetarli emasligi hosildorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu masalani hal qilish uchun yangi sug'orish texnologiyalari va davlat subsidiya mexanizmlarini kengaytirish zarur. Qolaversa, Toshkent viloyatida qishloq joylarda issiqxona xo'jaliklari va yuqori daromadli mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. O'zbekistonning qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportidagi asosiy yo'nalishlar orasida meva-sabzavotlar, quritilgan mevalar va paxta tolasi kabi mahsulotlar yetakchilik qiladi. Hozirgi kunda xalqaro bozorda Rossiya, Xitoy va Qozog'iston davlatlari mamlakatimizning asosiy savdo hamkorlari hisoblanadi. Farg'ona, Toshkent va Surxondaryo viloyatlari eksport hajmi bo'yicha yetakchilik qilib turibdi. Qishloq joylarda eksport salohiyatini yanada oshirish uchun logistika, sovutkich tizimlari, xalqaro sifat standartlariga javob beradigan laboratoriyalar va eksportga ixtisoslashgan kooperatsiyalarni rivojlantirish zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq joylarda mahsulotlarini xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish so'nggi yillarda global iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi sohasida katta salohiyatga ega bo'lib, 2024-2025 yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti hajmi o'rtacha yillik 30-35% ga o'sganligini ko'rsatmoqda.

Lekin, qishloq joylarda xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun mahsulot sifatini oshirish, xalqaro standartlarga rioya qilish va samarali marketing strategiyalarini joriy etish zarur. Ushbu sohada davlat tomonidan qabul qilingan qator islohotlar, jumladan, 2023-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishni qo'llab – quvvatlash uchun ajratilgan 150 million AQSh dollari miqdoridagi subsidiyalar eksport hajmini oshirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, global bozorlarda barqaror o'rin egallash uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilar xalqaro tajribalardan foydalanishga muhtoj. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportida muvaffaqiyatli

strategiyalarni shakllantirishda muhim yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi⁵. Shu bilan birga, global bozorlarda barqaror o'rin egallash uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilar xalqaro tajribalardan foydalanishga muhtoj. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportida muvaffaqiyatli strategiyalarni shakllantirishda muhim yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, Gollandiyada 2023-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportidan 120 milliard yevro daromad olib, dunyoda ikkinchi o'rinni egalladi. Bu mamlakatning muvaffaqiyati yuqori sifatli mahsulotlar, zamonaviy logistika tizimlari va organik qishloq xo'jaligiga e'tibor qaratish bilan bog'liq. Xuddi shunday, Chili uzum va boshqa meva-sabzavot mahsulotlari eksportida global bozorning 15% ulushiga ega bo'lib, xalqaro savdo shartnomalarini faol qo'llash va brending strategiyalariga sarmoya kiritish orqali muvaffaqiyatga erishdi⁶. Bu tajribalar O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qishloq joylarda mahsulotlarini eksport qilishda yangi imkoniyatlarni ochadi. 2024-yilda mevasabzavot eksporti umumiy qishloq xo'jaligi eksportining 60% dan ortig'ini tashkil etdi, bu esa ushbu sohaning iqtisodiy ahamiyatini ko'rsatadi. Biroq, raqobatbardoshlikni oshirish uchun bir qator muammolar, jumladan, logistika xarajatlari, sifat sertifikatlari va xalqaro bozorlarga kirishdagi to'siqlar hal qilinishi lozim. Yevropa Ittifoqi bozorlariga eksport qilish uchun GlobalGAP sertifikatiga ega bo'lish talab qilinadi, ammo 2023-yilda O'zbekiston fermerlari orasida bu sertifikatga ega bo'lganlar soni atigi 5% ni tashkil etdi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish yo'llarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotda mahsulot sifatini yaxshilash, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, logistika tizimini optimallashtirish va xalqaro tajribalarni qo'llash kabi strategiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat siyosati va xususiy sektor hamkorligining eksport salohiyatini oshirishdagi roli alohida e'tibor markazida bo'ladi. Quyidagi jadvalda qishloq joylarda savdo tizimida duch keladigan asosiy muammolar va ularning qisqacha tavsifi keltirilgan.

2-jadval

Qisloq joylarda savdo tizimining muammolari⁷

Muammo	Tavsif
Mahsulot sifati va standartlar	Xalqaro bozorlar talab qiladigan sifat standartlariga rioya qilish darajasi past. 2023-yilda faqat 5% fermerlar GlobalGAP sertifikatiga ega edi
Logistika va infratuzilma	Yuk tashish xarajatlari yuqori, sovutgichli omborlar va transport infratuzilmasi yetarli emas. 2024-yilda logistika xarajatlari eksport narxining 20-25% ini tashkil etdi.
Moliyaviy resurslarning cheklanganligi	Kichik va o'rta fermer xo'jaliklari zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va eksport jarayonlarini moliyalashtirishda qiyinchiliklarga duch keladi.
Xalqaro bozorlarga kirish	Savdo to'siqlari, bojxona tariflari va xalqaro shartnomalarning cheklanganligi tufayli yangi bozorlarga kirish qiyin.
Marketing va	Mahsulotlarning xalqaro bozorlarda tanilgan brendi yo'q, reklama va

⁵ B.E.Rasulov. “Qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilishdagi muammolar va ularning yechimi”. Toshkent: Sharq, 2019.

⁶ Lebdioui, A. Chile's export diversification since 1960: 2023 yil

⁷ Muallif ishlanmasi

brendingning
yetishmasligi

marketing strategiyalari kuchsiz.

Ushbu muammolar O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlarining global bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga to'sqinlik qiladi va ularni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Quyida yuqorida keltirilgan muammolarni hal qilish uchun taklif qilinadigan yechimlar amalga oshirish maqsadga muvfiq bo'ladi⁸.

Tahlillar natijasining ko'rsatkichiga ko'ra, qishloq joylarda aholi sonlarining yildan-yilga oshib borishi savdo tizimining iqtisodiy mohiyatda bir qator muammo va kamchiliklarni bartaraf etishi, sohani isloh qilishda zamonaviy innovatsion, resurs tejaydigan raqamli texnologiyalardan keng foydalangan holda tub burilishni amalga oshirishni talab etmoqda. Xususan, respublikada umumiy ishlab chiqarish hajmi, ya'ni qishloq xo'jaligi 27 foiz, sanoat korxonalarini 33 foiz va boshqa xizmatlar 40 foiz tashkil etgan. Shahar aholisining daromadi qishloq aholisining daromadidan 1.3-1.5 baravar baland bo'lganligi uchun qishloq joylardagi aholining umumiy ishlab chiqarish darajasi 35 foizni tashkil etgan⁹.

Ilmiy izlanishlar natijasi iqtisodiyot tarmoqlarida savdo tizimi bilan bog'liq jarayonlar davlat va xo'jalik organlari, mos yetakchi fan va oliy ta'lim muassasalari hamda biznes jamoatchiligi jamoaviy uyg'unlashuvi bilan bog'liq masalalar kompleks yondashuvda shakllantirilishi maqsadli ekanligini ko'rsatdi. Chunki ushbu faoliyatda paydo bo'ladigan hududiy, tarmoq yoki uning ayrim sohasiga xos nazariy, uslubiy va amaliy muammolar “inson kapitali”, ya'ni insonlarda jamlangan qobiliyat, malaka va maqsadlar zahirasi bilan soha va sohalararo ichki, tashqi integratsiyalashuvning kuchayishi bilan paydo bo'lgan innovatsion muhitda “ilm orqali bilim” tamoyili qonuniyatiga ko'ra konsentratsiyalashgan bilimlardan o'z o'rnida foydalanish bilan tasdiq'ini topadi.

XULOSA

Savdo tizimlarni tashkillashtirishdan maqsad-ma'lum bir hududda joylashgan bir xil soha korxonalarini va ular bilan yagona texnologik zanjirda bo'lgan ilmiy, injineri, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa jihatlarni uyg'unlashtirish-innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish asosida raqobatga yaroqli tovarlarni yaratishga yo'naltirishdan iborat bo'lib, eng ahamiyatlisi aholini ish bilan ta'minlanishi hisoblanadi.

Demak, qishloq joylarda savdo tizimi quyidagi vazifalarni qamrab oladi:

- savdo tizimida mahsulotlarini taqsimlash va yetkazib berish;
- aholini turmish darajasini oshirish va modiy - texnikalar bilan taminlash;
- dehqon va fermirlar uchun mahsulotlarni sotish bozorini yaratish;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni qo'llab – quvvatlash, oldindan sotish sharoitlarini tashkil etish;

⁸ Washington Post. (2022). Netherlands is the second-largest exporter of agricultural products. Washington Post Interactive.

⁹ www.worldbank.org

-zamonaviy savdo texnologiyalarini joriy etish va elektron savdoni rivojlantirish;

-hosil ko'p ekinlarini ekish, mahsulot yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va sotish jarayonini to'liq qamrab oluvchi tizimni shakllantirish;

-malakali yangi ish o'rinlarini tashkil etish etish.

Shunday qilib, savdo tizimini shakllantirish va uning tarkibini ilmiy asoslashda an'anaviy bo'lgan ekin maydoni, o'rtacha hosildorlik, yalpi hosil, samaradorlik va iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan chegaralanish yetarli bo'lmaydi. Bu yerda, ichki va tashqi bozorni raqobatli, sifatli va xaridorgir bo'lgan qayta ishlangan mahsulotlar bilan ta'minlash, bundan tashqari ijtimoiy va ekologik samaralar malakali mehnat o'rinlarini ko'paytirish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, mehnatga layoqatlilik davri o'sishini ta'minlash, ishsizlar sonini kamaytirish, tabiiy resurslarni asrash kabi jarayonlarni hisobga olish zarur bo'ladi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan yuqori darajadagi islohotlarning hozirgi bosqichida ushbu savdo tizimi qishloq joylardagi ijobiy iqtisodiy siljishlar viloyatlarda aholi bandligining ortishi, turmush darajasining yaxshilanishi va qishloq infratuzilmasining rivojlanishiga olib keldi. Ayniqsa, yoshlar va ayollarni mehnat faoliyatiga jalb etish, kooperatsiya va innovatsiyalarni joriy qilish orqali ijtimoiy barqarorlikka erishish imkoniyati kengaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rural Industry Development: Implementing a Whole-of-Chain Approach By Mubashir Mehdi
2. Jo'rayev, S. (2020). "Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishda erkin bozor munosabatlari va yer resurslaridan oqilona foydalanish." Qishloq xo'jaligi rivojlanishining iqtisodiy asoslari. Toshkent: O'zbekiston iqtisodiyoti nashriyoti.
3. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning TARAQQIYOT STRATEGIYASI to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli Farmoniga 1-ilova. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
4. B.E.Rasulov. "Qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilishdagi muammolar va ularning yechimi". Toshkent: Sharq, 2019.
5. Lebdoui, A. Chile's export diversification since 1960: 2023 yil
6. Washington Post. (2022). Netherlands is the second-largest exporter of agricultural products. Washington Post Interactive
7. Lucas R. *On the Mechanics of Economic Development*. – Journal of Monetary Economics, 1988.
8. Rodrik D. *The Globalization Paradox*. – New York: 2011.